

## BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI TA‘LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA O‘LCHOVLARI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tili ta‘limini ijodiy tashkil etishning mohiyati va o‘lchovlari haqida ma‘lumot berilgan. Ona tili, insonning g‘oya, mehnat va ijodiy yondashuvlarini ifodalashning asosiy vositasi sifatida o‘rtasida muhim ahamiyatga ega. Bu ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga boshlang‘ich sinflarda ona tilini sevganligini va uning o‘ziga xosligini his qilishlari talqin etiladi.

**Kalit so‘zlar:** ijodkorlik, jamiyat, rivojlanish, malaka, ko‘nikma, tajriba, texnologiya, kognitiv, verbal, consensus.

### ABSTRACT

This article provides information about the nature and dimensions of creative organization of mother tongue education. The mother tongue is important as the main means of expressing ideas, work and creative approaches of a person. In this educational process, students are taught to love their mother tongue and feel its uniqueness in elementary grades.

**Keywords:** creativity, society, development, competence, skill, experience, technology, cognitive, verbal, consensus.

Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, XX asr boshida olti tilli - o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan alloma Ishoqxon Ibratning mana bu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa‘y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir”. Bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O‘zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi.<sup>1</sup>

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining o‘z tili, adabiyoti, san‘ati va tarixini yanada chuqurroq o‘rgatish imkoniyati kengaydi. Ma‘naviyatimizning ajralmas qismi bo‘gan tilimizni tadqiq qilish ham istiqbol bergan ne‘matlardan hisoblanadi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. М 54 Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: “O‘zbek131op” нашриёти, 2021. - 464 б.

<sup>2</sup> Isroilova I. - TILNI EGALLASH VA NUTQNI O‘STIRIB BORISH ORQALI FIKRLASH QOBILIYATINI

Ta'limni, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishni hech kim inkor qilmaydi. Aksincha, ta'limni ijodiy tashkil etish yuli bilan uning samaradorligini oshirish, yoshlarni hayot, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning sifatini yaxshilash mumkinligini o'qituvchilar ham, ilmiy jamoatchilik ham e'tirof etadi. Aytish kerak, ona tili darslarining ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdagi roli juda muhim. Ijtimoiy fanlarda "ijodiy fikr" tushunchasi fikrning o'z sub'ekti bilan bo'lgan munosabatini anglatadi. Fikr bir tomondan umumiylik xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan sub'ektivdir. U shaxsning ijtimoiy-ruhiy holati bilan bevosita bog'langan. Ushbu fikriy jarayonda shaxsning boshqaruvchilik faolligi muhim o'rin egallaydi. O'quvchi yoshlardagi ijodiy fikr, bir tomondan psixologik holat bilan bog'langan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning yoshi, mamlakatda qabul qilingan ta'lim-tarbiya usuli, qoidalari va tamoyillari bilan ham uzviy aloqada bo'ladi.

Ijodiy fikr o'quvchining biror predmet, voqea, hodisa jarayon to'g'risida

o'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz bildirgan munosabati, bahosi, nuqtai nazaridir, o'zining "men"ini namoyish qilish vositasi, "qurolidir". Ijodiy fikrlash o'quvchining muayyan predmet va jarayonlar to'g'risidagi bilimi, malakasi asosida ularni taqqoslash, tahlil qilish, sodda fikrlardan murakkab fikrlarga, murakkab fikrlardan sodda fikrlarga o'tish sharoitida, jamiyatda mavjud ijtimoiy-tarixiy holatni hisobga olgan holda, o'ziga xos mulohaza yuritish sanaladi. Ijodiy fikrlash aytilganidek, o'quvchining individual psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, u o'zining hajmi, mazmuni, mantiqiylik darajasi hamda tezkorligiga ko'ra farqlanadi. Unda muayyan jihatni aniqlash, qiyoslash, tahlil qilish, ikkilanish, tassavur qilish, modellashtirish yaratish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu jarayonda jamiyatning o'quvchi shaxsning ijodiy salohiyatiga bo'lgan e'tibori muhim kasb etadi.

Ijodkorlik bir asrdan ko'proq vaqt davomida o'rganilib kelinmoqda va yaqinda ta'lim psixologiyasida bahs mavzusi bo'ldi ( Smith and Smith, 2010 ).

Buning sababi shundaki, bizga, ayniqsa, ta'lim tizimida ( Makel, 2009 ) ko'proq ehtiyoj borligi haqidagi umumiy konsensusga qaramay, ijodkor olimlar hali ham ushbu murakkab hodisaning mohiyatini tushunishda qiynalmoqdalar va ularni yaxshilash uchun yuqori samarali dasturlarni ishlab chiqishdan ancha uzoqdirlar Ijodkorlikning dominant modellari uni kognitiv mexanizmlar (masalan, turlicha fikrlash) va shaxsiy xususiyatlar (tajribaga ochiqlik kabi) bilan bog'laydi, lekin

---

RIVOJLANTIRISH,  
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАЦИЯВИЙ – ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР 2-bosqich magistranti,  
TDPU.

umuman olganda, ijtimoiy va moddiy jihatlar bilan to'g'ri shug'ullana olmaydi (bir nechta muhim istisnolardan tashqari, masalan, Csikszentmihalyi ),<sup>1</sup>

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini ijodiy tashkil qilishni mustaqil ta'lim asosida o'qitish, ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga darsda va darsdan tashqari mustaqil ish qilish uchun vazifalar beriladi. Bu esa o'z navbatida ona tili o'qitish ta'limida o'quv tarbiya jarayonining muhim shakli sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili va ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilashga imkon beradi:

-boshlang'ich sinflarda yuzaga kelgan o'quv muammolari o'zida qandaydir hayotiy vaziyatni namoyon yetmog'i lozim. Dars jarayonida o'quvchilar e'tiborini jalb yetish uchun ijodiy topshiriqlarni berish lozim.

-Ona tilining o'quv predmeti sifatidagi ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, hayot bilan aloqasiga ko'ra boshqa fanlardan keskin farqlanishidir.

-Faqat boshlang'ich sinflarning ona tili darslari uchun xarakterili metodik usullardaish ko'rishda.

-O'quvchilarga o'quv materialining hissiy ta'sir yetishida.

-Faqat ona tili darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish jarayonida.

-Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida ijodiy topshiriqlardan foydalanish, balki unga tayyorgarlikhaqida ham gap boradi, chunki o'quvchilar bunday topshiriqni qabul qilishga oldindan psixologik, mantiqiy tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari kerak; - Boshlang'ich sinflardagi ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning doimiy ravishda mashg'ul bo'lishi bilan bog'liq.

O'quvchilarda mustaqil ishlash avvalo, mustaqil ishlarga tayyorlash, o'qituvchi tomonidan materialning muammoli tarzda bayon etilishi kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda berib borgan ma'qul: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, o'zlashtirilgan usullarini amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish, Ona tili va o'qish savodxonligi ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi.

Ona tili ta'limiga kognitiv yondashuv o'quvchini ta'lim jarayoning sub'ektiga, faol fikrlovchi hamda hukm va xulosalar chiqaruvchi shaxsga aylantiradi. Bu esa, o'z navbatida o'rganilayotgan til materialining puxta o'zlashtirilishi hamda o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish garovidir. Shuningdek, ona tili darslarida ijodii tafakkur

<sup>1</sup> <file:///D:/saqlangan%20fayllar/1543 - B8-4634-1-10-20221112.pdf>

sohibini tarbiyalash har bir o'quvchida mavjud bo'lgan ijodkorlik xususiyatlarini tarkib toptirish, kognitiv –verbal talim imkoniyatlarini ishga solish, uni talim maqsadiga muvofiq keladigan darajaga ko'tarish bilan.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllari, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida mahorat bilan qo'llab borishi va undan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. М 54 Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 б.
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Y o'ldosheva, Sharoljon Sariyev ONA TILI O'QITISH METODIKASI Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan .Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009
3. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O'RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O'QISH VA ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.
4. Olimovich. (2023). MAKTABGA TAYYORLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 876–881. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.748>
5. G Eshchanova . Zamonaviy o 'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisining kasbiy standarti va kompetensiyasi fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 2021
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
7. Ashuraliyev Rahmonjon, & Sanobarxon Asilova. (2023). BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 770–772. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.710>
8. Komiljonova, E. G. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 788-789.
9. JS Ikromjonovna, X Muazzamxon "O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI" Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 806-81